



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 394 sahifa,  
1-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining boshqaruv funksiyalari.....	10
<b>Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna</b>	
Texnologik mashinalar va jihozlar ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik qonuniyatlari va metodologik tizimini ishlab chiqish .....	15
<b>Elmanov Abbas Begmat o'g'li, Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich</b>	
Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yinning roli .....	19
<b>Ergasheva Farangiz Umidjon qizi, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....	23
<b>Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna</b>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari .....	28
<b>Gulmira Jumanova</b>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati .....	33
<b>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularda hissiy-irodaning shakllanishi .....	37
<b>Davlatova Zebo Haydarovna</b>	
Zamonaviy oilada avlodlararo munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	40
<b>Ochilova Farida Baxriddinovna</b>	
Maktab va oliy ta'lim muassasalarida qizlar kitobxonligini rivojlantirish metodlari .....	44
<b>Qo'chqarova Oysha Oltibayevna</b>	
Buyuk allomalar merosidan foydalanishning metodik holati va mavjud muammolari.....	48
<b>Sevara Mamatkarimova</b>	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	53
<b>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</b>	
Использование современных инновационных методов в процессе обучения русскому языку в иноязычных группах высшего образовательного учреждения.....	56
<b>Курбанова Шаира Исмаиловна</b>	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ...	60
<b>Kushakova Gulnora Egamkulovna, Muhammadiyeva Shaxzoda Sunnatilla qizi</b>	
Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari .....	63
<b>Muminova Feruza Farxodovna</b>	
Alisher Navoiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati .....	70
<b>Qayumxo'jayev Botirxo'ja Ikromxo'ja o'g'li</b>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida amaliy topshiriqlar orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish .....	74
<b>Saidova Dilnoza Maripovna</b>	
К вопросу о классификации современной антиутопии.....	78
<b>Дмитрий Валерьевич Пупонин</b>	
Когнитивная гибкость как фактор психологического благополучия старшеклассников в период адаптации к новым образовательным требованиям .....	82
<b>Муксинова Динора Азаматовна</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash: xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili va O'zbekiston amaliyoti .....	87
<b>Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi</b>	
Valeologik tarbiya asosida maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tayyorlashda innovatsion va raqamli yondashuvlar .....	92
<b>Berkinova Charos Islomovna</b>	



Grammatik tushunchalarni o'rgatish metodikasi.....	96
<i>N. R. Masharipova</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish va o'quvchilar bilimini baholashda xorijiy tajribalardan foydalanish finlyandiya ta'lim tizimi misolida.....	99
<i>Obidova Muqaddas Ro'ziqulovna</i>	
The Difference Between Androgogy and Pedagogy.....	106
<i>Pardayeva Aziza Rahmatillojevna</i>	
Elektr mashinalari fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalari.....	110
<i>Shodiyeva Nozina Shuxrat qizi</i>	
Umumta'lim maktablarida direktor o'rinbosarlarining aksiologik yondashuv asosida boshqaruv funksiyalari va vakolatlari hamda maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish yo'llari.....	113
<i>Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li</i>	
Ispan tili darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish usullari .....	119
<i>Tursunqulov Sanjar Dilmurod o'g'li, Shukurullayeva Feruza Dilmurodovna</i>	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxta navlarining qo'llanilishi .....	124
<i>Ubaydullayeva Komila Bozor qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda empatiya hissini shakllantirishning nazariy asosi .....	127
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Bahodirovna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi .....	130
<i>Raximova Dilshoda Xoliqberdiyevna</i>	
Bo'lajak sport murabbiylarida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari .....	134
<i>Sherzod Shuxratovich Boboyorov</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida talabalar sportini rivojlantirishning iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlari.....	138
<i>Sangirov Nuriddin Iriskulovich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning integrativ modeli .....	142
<i>Rasulova Umida Bahodir qizi</i>	
Yashil pedagogikaning konseptual modeli va tamoyillari.....	146
<i>Raxmatova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Ta'lim jarayoni ishtirokchilarida emotsional barqarorlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari ..	149
<i>Boymatova Munavvar Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish samaradorligi.....	152
<i>Lukmonova Salomat Gafurovna</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining shakl, metod va vositalari .....	157
<i>Farmonova Madina Bahriddin qizi</i>	
Innovatsion boshqaruv tizimlarida qaror qabul qilish va kommunikatsiya samaradorligi .....	161
<i>Sotvoldiyeva Xurliqo G'ayratjon qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning media savodxonligini shakllantirish metodikasi.....	167
<i>Choriyeva Xurmo Panji qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim mutaxassisleri malakasini oshirish tizimining zamonaviy tendensiyalari va raqamlashtirish jarayonlarining pedagogik ahamiyati.....	172
<i>Qosimova Sh. N., Dusmaxamedov A. A.</i>	
Maktab o'quvchilarida o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirishning pedagogik asoslari (8–9-sinflar asosida)..	177
<i>Norxo'jayeva Lobar Nuriddin qizi</i>	
STEAM loyihalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirish .....	181
<i>Mirjamolova Moxira Abdugaffor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati va metodik asoslari.....	188
<i>Axmad Bolqiyev</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida baholashning pedagogik asoslari.....	191
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Boshlang'ich ta'limda liderlik va pedagogik menejment muammolari.....	194
<i>Pardaboyev Doston</i>	
Raqamli ta'lim muhiti: tushunchasi, strukturasi va rivojlanish tendensiyalari.....	197
<i>Kulboyeva Dilnoza Abdug'afurovna</i>	
Особенности применения графических органайзеров на практических занятиях по дисциплине “Практикум литературы народов СНГ”.....	199
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	
Historical Stages in the Study and Treatment of Scoliosis (Spinal Curvature).....	204
<i>Shermatova Mokhira Baxodir qizi</i>	
Talaba qizlarga badiiy gimnastika cho'qmori yordamida bajariladigan fundamental mashqlarni o'rgatish....	209
<i>Musharafxon Sultanova</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo'yicha xalqaro modellarning qiyosiy tahlili.....	213
<i>Ziyotova Madina</i>	
Sport mutaxassislarini tayyorlashda voleybol o'qituvchisining ko'nikmalari va uslubi .....	216
<i>Turg'unov Baxtiyor O'rolovich</i>	
Matematik masalalarni yechish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish .....	220
<i>Yusupova Latofat Nuriddinovna</i>	
Zamonaviy sharoitda bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari .....	228
<i>Nasirova Nigora Baxtiyor qizi</i>	
Paraengil atletika mashg'ulotlarida individual yondashuvning ahamiyati .....	233
<i>Abduxoliqova Shoiraxon Akramjon qizi</i>	
Biologiya fanini o'qitishda xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanish orqali ekologik madaniyatni rivojlantirish .....	239
<i>Baxrombekova Sojidxon Sherzodjon qizi</i>	
Maktab texnologik ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: o'rta muddatli istiqbollar (2027–2031) .....	245
<i>Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna, Tursunov Sherzod Ziyat o'g'li, Ismatullayev Javohir Ubaydulla o'g'li</i>	
Axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali jismoniy tarbiya va sport tizimini boshqarish samaradorligini oshirish .....	251
<i>Eryigitov Dilshod Xolboyevich</i>	
Enhancing Speaking Skills Productively in English .....	255
<i>J. M. Fayzullayev, G. R. Elmonova</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan katta guruh bolalari bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari .....	259
<i>Jumanova Iroda Nomozovna, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</i>	
2–3 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvi: nazariy va empirik tahlil .....	263
<i>Klicheva Dilnoza Zulfon qizi</i>	
Inson–texnika tizimida ta'lim olayotgan talabalarda iste'dod namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari .....	267
<i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarning mutaxassis sifatida shakllanishida xavotirlanish holatining namoyon bo'lishi.....	270
<i>Nuriddinov Rasuljon Samitjon o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlashda zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuv.....	274
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Kodirova Albina Faridovna</i>	
Talabalarda qaror qabul qilishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	279
<i>Rajabova Go'zal Zarifovna</i>	
Musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikning tezkorlikka ta'siri.....	283
<i>Sitora Elova Axmatkulovna</i>	



Pediatriya ta'limida sun'iy intellekt – talaba uchun virtual assistent.....	287
<i>Umarkulov Muhtorali Islomkulovich</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarida jismoniy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	290
<i>Xakimov Xurshid Nozimovich</i>	
Сущность и виды познавательной активности детей 5–6 лет.....	294
<i>Джамилова Н. Н., Кудратова М. У.</i>	
Uzluksiz ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashning pedagogik-psixologik masalalari.....	298
<i>Siddiqova Sanobar Xaydarovna</i>	
Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish, ijodiy faolligini oshirish.....	301
<i>Siddiqova Sanobar Xaydarovna, Qushoqova Guzal</i>	
Badiiy adabiyotda Ibn Sino obrazining yaratilishidagi o'ziga xosliklar.....	304
<i>Tangirov A. J.</i>	
Ta'lim klasteri asosida zaif eshituvchi bolalarni inklyuziv ta'lim muhitiga moslashtirishning pedagogik mexanizmlari.....	309
<i>Dilnoza Xushvaktovna Ernazarova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish.....	313
<i>Payzullaeva Gozzal Bayrambayevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik mas'uliyat ko'nikmasini rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari.....	317
<i>Maxramova Gulchexra Maxsudbek qizi</i>	
Maxsus ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik samaradorligi.....	320
<i>Tashkenbayeva Dilafuz Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan talablar.....	325
<i>Xazratkulova Shoira Noraliyevna</i>	
Musiq madaniyati darslarida multimedia vositalarida musiq o'qituvchisining kompetensiyaviy tayyorgarligi.....	329
<i>Qudratova Elnoz Ismatilayevna, Ismailova Sevinch, G'oibnazarov Elmurod</i>	
Boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning didaktik modeli.....	334
<i>Tillaboyeva Havasxon</i>	
Diskursiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....	340
<i>Boynazarova Nilufar Tilovmurot qizi</i>	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari.....	346
<i>Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari.....	349
<i>Ergasheva Sitora Baxriddin qizi</i>	
Sinergetik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashni takomillashtirish zarurati va imkoniyatlari.....	353
<i>Xo'shboqova Surayyo Baxtiyor qizi</i>	
Interfaol metodlar asosida o'smirlarda mustaqil tafakkurni rivojlantirish.....	357
<i>Ismoilova Mashxura Mashrabbek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	360
<i>Kuvanakova Guljaxon</i>	
The Role of Autonomous Learning in Developing English Language Proficiency of University Students in Uzbekistan.....	363
<i>Omonova Kamola, Mutabar Zikriddinova</i>	
Maktablarda fasilitator faoliyatini tashkil etish borasida ayrim mulohazalar.....	366
<i>Qahhorova Marjona Ixtiyor qizi</i>	
Модель и педагогические условия формирования профессиональных компетенций будущих учителей в области информационной безопасности.....	370
<i>Сагинбаева Кымбат Кенжегалиевна, Нуриддинова Майсара Икрамовна</i>	

Boshlang'ich sinf darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish.....	374
<b>Xudoynazarova Muxlisa Bakhadirovna</b>	
Совершенствование методической компетентности будущих учителей начальных классов на основе креативного подхода .....	377
<b>Дониёрова Лайло Худайбердиевна</b>	
Talabalar guruhida jipslikning shakllanishida liderlikning ta'siri .....	385
<b>Asrarxanova E. A., Bo'riboeva Mahliyo Anorboy qizi</b>	
Musiqa to'garaklarida o'quvchilarga cholg'u asboblari ijro etishni o'rgatish uslublari.....	388
<b>Q. Boboqulov, Jazilov Shuhrat Rustamovich</b>	
Состояние проблемы в практике школ Узбекистана на современном этапе.....	391
<b>Муминова М. Р.</b>	



# TALABALAR GURUHIDA JIPSLIKNING SHAKLLANISHIDA LIDERLIKNING TA'SIRI

Asrarxanova E. A.

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti,  
 "Amaliy psixologiya" kafedrası o'qituvchisi, dotsent, ps.f.b.f.d (PhD)

Bo'riboeva Mahliyo Anorboy qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
 Amaliy psixologiya yo'nalishi IV bosqich 402-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalar guruhida guruh jipsligi va liderlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Liderlikning turli uslublari – avtoritar, demokratik va liberal – guruh dinamikasiga, a'zolarning motivatsiyasiga hamda umumiy psixologik iqlimga ko'rsatadigan ta'siri tahlil etilgan. Guruh jipsligini shakllantiruvchi psixologik omillar: shaxslararo munosabatlar, maqsad birligi, hamkorlik muhiti va emotsional xavfsizlik tushunchalari ilmiy adabiyotlar asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari liderning xulq-atvor strategiyasi guruh integratsiyasining sifat ko'rsatkichi ekanligini tasdiqlaydi.

**Kalit so'zlar:** liderlik, guruh jipsligi, talabalar guruhi, guruh dinamikasi, ijtimoiy-psixologik iqlim, demokratik liderlik, shaxslararo munosabatlar.

**Abstract:** This article examines the socio-psychological characteristics of the relationship between group cohesion and leadership in student groups. The influence of various leadership styles – authoritarian, democratic, and liberal – on group dynamics, member motivation, and overall psychological climate is analyzed. Psychological factors forming group cohesion – interpersonal relations, unity of goals, collaborative environment, and emotional safety – are highlighted based on scientific literature. The findings confirm that a leader's behavioral strategy is a qualitative indicator of group integration.

**Key words:** leadership, group cohesion, student group, group dynamics, socio-psychological climate, democratic leadership, interpersonal relations.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются социально-психологические характеристики взаимосвязи между групповой сплоченностью и лидерством в студенческой группе. Анализируется влияние различных стилей лидерства – авторитарного, демократического и либерального – на групповую динамику, мотивацию членов группы и общий психологический климат. На основе научной литературы рассматриваются психологические факторы, формирующие групповую сплоченность: межличностные отношения, единство целей, кооперативная среда и концепции эмоциональной безопасности. Результаты исследования подтверждают, что поведенческая стратегия лидера является качественным показателем групповой интеграции.

**Ключевые слова:** лидерство, групповая сплоченность, студенческая группа, групповая динамика, социально-психологический климат, демократическое лидерство, межличностные отношения.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida talabalar guruhini samarali boshqarish va unda qulay psixologik muhitni ta'minlash dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Guruh – bu shunchaki bir joyda o'qiydigan shaxslar to'plami emas, balki o'z ichki qonuniyatlariga, ierarxiyasiga va psixologik dinamikasiga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy tizimdir. Bu tizimning samarali ishlashi ko'p jihatdan unda liderlik vazifasini bajaruvchi shaxsning xususiyatlariga bog'liq. Psixologiya fanida liderlik va guruh jipsligi munosabatlari uzoq yillardan beri tadqiq etilib kelinmoqda. Biroq ta'lim muhitida, xususan, talabalar guruhida bu munosabatning o'ziga xos jihatlari hali to'liq o'rganilgan emas.

O'zbek psixologlari M.G. Davletshin va E.G'. G'oziyevlarning asarlarida guruh psixologiyasining asosiy qonuniyatlari belgilangan bo'lsa-da, liderlikning guruh jipsligiga ta'sirini mahalliy ta'lim kontekstida maxsus o'rgangan tadqiqotlar hamon kam.

Ushbu maqolaning maqsadi – liderlikning turli ko'rinishlari talabalar guruhida jipslikni shakllantirish yoki bo'shashtirishga qanday ta'sir ko'rsatishini nazariy jihatdan tahlil etish, ijtimoiy psixologiya fanidagi mavjud yondashuvlarni umumlashtirish va amaliy xulosalar chiqarishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Liderlik muammosiga oid ilmiy adabiyotlarni ko'rib chiqar ekanmiz, ushbu tushunchaning turli ta'riflarini uchratamiz.

Kurt Levin, Ronald Lippit va Ralph White o'tkazgan klassik eksperimental tadqiqotlar liderlik uslublari – avtoritar, demokratik va laissez-faire (erkin) – guruh a'zolarining xulq-atvori va samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini isbotladi. Ularning aniqlashicha, demokratik liderlik sharoitida guruh a'zolari ko'proq ijodiy, mulotqotga ochiq va o'z guruhiga sodiq bo'ladilar.

Leon Festinger guruh jipsligi tushunchasini "guruh a'zolarini guruhda qolishga undovchi kuchlar yig'indisi" sifatida ta'riflagan.

Ushbu klassik ta'rif keyinchalik Dorvin Kartwright tomonidan rivojlantirildi: uning fikricha, jipslik guruhning o'ziga xos tortish kuchi bo'lib, u a'zolarining bir-biriga yaqinligi, guruh maqsadiga berilganligi va hamkorlik qilish ishtiyoqida namoyon bo'ladi.

O'zbek psixologlari E.G' G'oziyev va M.G. Davletshin asarlarida guruh jipsligi shaxslararo munosabatlar sifati bilan bevosita bog'liq hodisa sifatida tavsiflanadi. G'oziyev ta'kidlashicha, guruh jipsligi statik holat emas – u doimiy ravishda guruh dinamikasi jarayonida shakllanadi va bu jarayonda lider hal qiluvchi rol o'ynaydi.

N. Ismoilova va D. Abdullayevalarning "Ijtimoiy psixologiya" darsligida ta'kidlanishicha, talabalar guruhi o'ziga xos xususiyatlarga ega: u rasmiy tashkiliy tuzilma va norasmiy munosabatlar tizimini o'z ichida birlashtiradi. Bu ikkilamchi tabiat liderlik funksiyasini murakkablashtiradi, chunki rasmiy rahbar (guruh sarkardasi) va norasmiy lider (guruhda obro'si yuqori shaxs) rollari ko'pincha turli kishilarda namoyon bo'ladi. Aynan shu bo'linish guruh jipsligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin<sup>[12]</sup>.

Metodologik jihatdan ushbu maqolada quyidagi yondashuvlardan foydalanilgan: ijtimoiy psixologiya sohasidagi nazariy adabiyotlarning tahlili, qiyosiy tahlil usuli (turli liderlik uslublarni solishtirish) hamda tizimli yondashuv (guruh jipsligini ko'p omilli hodisa sifatida o'rganish).

## TAHLIL VA NATIJALAR

### Liderlik va guruh jipsligi: bog'liqlik mohiyati

Liderlik ta'sir o'tkazish jarayoni sifatida guruh dinamikasining markazida turadi. Robert House tomonidan ilgari surilgan "yo'l-maqсад" nazariyasiga ko'ra, samarali lider guruh a'zolari oldida aniq yo'nalish ko'rsatib, ularning maqsadga erishish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga yordam beradi. Ushbu nazariya talabalar guruhiga qo'llanganda, liderning vazifasi faqat topshiriqlarni taqsimlash emas, balki har bir a'zoning potensialini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratishdan iborat ekanligi ravshan bo'ladi.

Bernard Bass transformatsion liderlik nazariyasida liderning guruh a'zolari motivatsiyasiga ta'sir mexanizmini batafsil tahlil qilgan. Transformatsion lider a'zolarining shaxsiy manfaatlarini guruh maqsadlari bilan uyg'unlashtira oladi, bu esa o'z navbatida guruh jipsligini mustahkamlaydi. Talabalar guruhida bunday lider a'zolarining o'quv motivatsiyasini uyg'ota oladi, guruhga mansub bo'lish hissiyotini kuchaytiradi.

### Liderlik uslublari va ularning guruh jipsligiga ta'siri

Avtoritar liderlik uslubi guruhda tez qaror qabul qilinishini ta'minlasa-da, psixologik jihatdan bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, avtoritar lider boshchiligidagi guruhlarda a'zolar passiv ijrochilar roliga tushib qoladi. Guruh maqsadlari lider tomonidan bir tomonlama belgilanishi a'zolarining guruhga oid qaror qabul qilish jarayonidan chetlashishiga olib keladi, natijada jipslik sun'iy va mo'rt tus oladi – lider yo'qolishi bilan guruh tezda parchalanib ketishi mumkin.

Demokratik liderlik uslubi – guruh jipsligini shakllantirishning eng qulay modeli sifatida psixologlar tomonidan e'tirof etilgan. Bu uslubda lider qaror qabul qilish jarayoniga barcha a'zolarini jalb qiladi, har bir fikrga hurmat bilan yondashadi va guruh ichidagi nizolarni konstruktiv hal etishga ko'maklashadi.

Kurt Levin va hammuallif tadqiqotchilar o'z eksperimentlarida demokratik liderlik sharoitida guruh a'zolari nafaqat ko'proq ijodiy, balki o'zaro hamkorlikka ko'proq moyil ekanligini aniqlagan. Bu uslub talabalar guruhida intellektual muhit va o'zaro o'rganish madaniyatini vujudga keltiradi<sup>[5]</sup>.

Liberal (erkin) liderlik uslubida lider guruh a'zolariga keng mustaqillik beradi, biroq yo'nalish va tartib-intizomni zaiflashtiradi. Talabalar guruhida bu uslub dastlab ijodiy erkinlik sifatida qabul qilinishi mumkin, lekin vaqt o'tishi bilan guruhning umumiy maqsadi yo'qolishi va a'zolar o'rtasidagi aloqalarning bo'shashishiga olib keladi. Natijada guruh jipsligi pasayadi, har kim o'z yo'lidan ketadi.



Guruh jipsligini shakllantiruvchi psixologik omillar. Ijtimoiy psixologiya tadqiqotlari guruh jipsligining quyidagi asosiy komponentlarini ajratib ko'rsatadi.

**Birinchi omil – maqsad birligi:** guruh a'zolari umumiy maqsadni qanchalik aniq va shaxsan muhim deb hisoblasalar, guruh shunchalik jips bo'ladi. Liderning vazifasi ushbu umumiy maqsadni har bir a'zo uchun mazmunli qilib ko'rsatishdan iborat.

**Ikkinchi muhim omil – emotsional xavfsizlik muhiti.** Psixolog Amy Edmondson psixologik xavfsizlik tushunchasini guruh a'zolari o'zlarini erkin, hukm qilinmagan holda fikr va his-tuyg'ularini bildirib olish holati sifatida ta'riflagan. Lider bu muhitni yaratishda kalit rol o'ynaydi: u a'zolarining xato qilishdan qo'rqmasligini, o'z muammolari haqida ochiq gapira olishini ta'minlashi lozim. Bunday sharoitda a'zolar bir-biriga ko'proq ishonadi, bu esa jipslikning mohiyatini asosi hisoblanadi.

**Uchinchi omil – shaxslararo munosabatlar sifati.** E.G'. G'ozievning ta'kidlashicha, guruh jipsligi to'g'ri-dan-to'g'ri a'zolar o'rtasidagi munosabatlarning chuqurligi va sifatiga bog'liq. Lider shaxslararo munosabatlarni tartibga soluvchi vositachi sifatida ishlaydi: u nizolarni boshqaradi, hamkorlikni rag'batlantiradi va guruh ichidagi kamsitish yoki marginallashuvning oldini oladi <sup>[1]</sup>.

**To'rtinchi omil – guruh identifikatsiyasi, ya'ni a'zolarining guruhga mansublik hissi.** Talabalar guruhida bu his "biz" psixologiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Samarali lider guruh ichidagi umumiy qadriyatlar, an'analar va o'ziga xos guruh madaniyatini shakllantirib, ushbu identifikatsiyani mustahkamlaydi.

#### **Rasmiy va norasmiy liderlik: talabalar guruhidagi o'ziga xoslik**

Talabalar guruhida ko'pincha ikki turdagi liderlik parallel ravishda mavjud bo'ladi. Rasmiy lider (guruh sarkardasi yoki starosta) ma'muriy vakolatlarga ega bo'lsa, norasmiy lider guruh a'zolarining ixtiyoriy ishonchi va hurmatiga tayanib ish ko'radi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jipslikni shakllantirishda norasmiy liderning ta'siri ko'pincha rasmiy lidernikidan ustun turadi, chunki u a'zolarining erkin tanloviga asoslanadi. Agar rasmiy va norasmiy lider o'rtasida ziddiyat yuzaga kelsa, guruh ichida ikki qarama-qarshi qutb paydo bo'lishi mumkin, bu esa jipslikni sezilarli darajada susaytiradi. Aksincha, ular hamkorlik qilganda guruh jipsligi maksimal darajaga ko'tariladi. Pedagoglar va ta'lim psixologlari uchun bu fikr amaliy ahamiyat kasb etadi: guruh sarkardasi sifatida nafaqat tartibli, balki norasmiy obro'ga ega shaxsni tanlash guruh samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## **XULOSA**

Olib borilgan nazariy tahlil asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin. Birinchidan, liderlik uslubi guruh jipsligining sifat ko'rsatkichini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Demokratik liderlik uslubi talabalar guruhida barqaror, ichki motivatsiyaga asoslangan jipslikni shakllantirish uchun eng qulay sharoit yaratadi. Ikkinchidan, guruh jipsligi ko'p omilli hodisa bo'lib, uni faqat liderlik bilan tushuntirib bo'lmaydi. Biroq lider ushbu omillarning barchasiga – maqsad birligiga, emotsional xavfsizlikka, shaxslararo munosabatlar sifatiga va guruh identifikatsiyasiga – bevosita ta'sir ko'rsatuvchi markaziy shaxs hisoblanadi. Uchinchidan, talabalar guruhida rasmiy va norasmiy liderlik o'rtasidagi muvozanat guruh psixologik iqlimining muhim ko'rsatkichidir.

Ta'lim muassasalarida guruhlar bilan ishlovchi psixologlar va o'qituvchilar ushbu muvozanatni doimiy kuzatib borishi, zarur hollarda aralashib, ikki tomonning hamkorligini ta'minlashi maqsadga muvofiq. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun amaliy eksperimental usullar – kuzatuv, sotsiometrik tahlil va so'rovnomalar – yordamida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida liderlik va guruh jipsligining o'zaro ta'sirini empirik jihatdan o'rganish dolzarb yo'nalish bo'lib qolmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. G'oziyev E.G'. Guruh psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 180 b.
2. Ismoilova N., Abdullayeva D. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. – 256 b.
3. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2002. – 368 b.
4. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 312 b.
5. Levin K., Lippitt R., White R. Patterns of aggressive behavior in experimentally created social climates // Journal of Social Psychology. – 1939. – № 10. – P. 271–301.
6. Edmondson A.C. Psychological safety and learning behavior in work teams // Administrative Science Quarterly. – 1999. – № 44 (2). – P. 350–383.
7. Abdullayeva D.U. Uyushmagan yoshlarning oiladagi munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari // Ta'limda istiqbolli izlanishlar. – 2024. – № 6. – B. 31–35.
8. Atabayeva N.B. Shaxs xulq-atvoriga ta'sir etuvchi omillar va uyushmagan yoshlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari // Ta'limda istiqbolli izlanishlar. – 2024. – № 6. – B. 22–26.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.